

Akademik litsey dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo'yicha bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash

T/r

Savollar

Davlat va huquq asoslari (Huquq faniga kirish)

- | | |
|-----|--|
| 1. | Fuqarolar tomonidan sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklar uchun qanday yuridik javobgarlikka tortilishlari mumkin? |
| 2. | Jinoyat huquqi mohiyatini yoritib bering. |
| 3. | Jinoyat tushunchasi va uning tarkibini tushuntirib bering. |
| 4. | Mehnat huquqi subyektlari sifatida kimlar ishtirok etadi? |
| 5. | Mehnat shartnomasi deganda nimani tushunasiz? |
| 6. | Ma'muriy huquq qanday munosabatlarni tartibga soladi? |
| 7. | Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi qanday intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli? |
| 8. | Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish metodlari. |
| 9. | Huquq normasi tarkibiy qismi sifatida sanksiyaning asosiy mazmunini yoritib bering. |
| 10. | Huquqiy tizim deganda nimani tushunasiz? |
| 11. | Huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalarini tahlil qiling. |
| 12. | Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari ko'rsatib o'ting. |
| 13. | Nikoh shartnomasi tushunchasi va mazmunini yoritib bering. |
| 14. | Hozirgi davrda xalqaro huquqning roli hamda uning O'zbekiston huquqiy tizimidagi ahamiyatini yoritib bering. |

15.	Xalqaro huquq qanday munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.
16.	Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlarini aytib bering.
17.	Yuridik shaxs tushunchasi va belgilarini bayon qiling.
18.	Oila huquqi deganda nimani tushunasiz?
19.	Nikoh tuzish tartibini aytib bering.
20.	Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishini tusuhuntirib bering.
21.	Oila huquqining asosiy tamoyillarini yoritib bering.
22.	Jinoyat uchun javobgarlik tushunchasini bayon eting.
23.	Huquq normalarini boshqa ijtimoiy normalardan farqli jihatlarini ko'rsatib o'ting.
24.	Mehnat huquqiy munosabatlari tushunchasi va mazmunini bayon qiling.
25.	Ekologiya huquqi mazmunini tushuntiring.
26.	Jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini bayon eting.
27.	Ekologik nazorat tushunchasi va mohiyati yoritib bering.
28.	Ekologik nazorat ob'ektlariga nimalar kirishini ayting.
29.	Ekologik nazoratning turlarini yoritib bering
30.	Ekologik qonun talablarini buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilanadi?
31.	Jinoyat qonuni prinsiplarini yoritib bering.
32.	Jinoyatning belgilari bayon qiling.
33.	Jinoyatlarni tasniflash maqsadi nima?

34.	Xalqaro huquq tushunchasi va mazmun-mohiyatini yoritib bering.
35.	Huquqni ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus vosita sifatida tavsiflab bering.
36.	Huquq normalarining asosiy xususiyatlarini bayon qiling.
37.	Ma'muriy huquq predmetini nima tashkil etadi?
38.	Davlatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
39.	Qonun chiqaruvchi organ nima?
40.	Sud hokimiyati nima?
41.	Ijro etuvchi hokimiyat nima?
42.	Huquqiy davlat nima va uning belgilari nimalardan iborat?
43.	Qonun ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?
44.	Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi roli qanday?
45.	Xalqaro huquq nima va uning milliy huquqdan farqi nimada?
46.	Mulk huquqi va mulkchilik turlari haqida nimalarni bilasiz?
47.	Inson huquqlari va asosiy erkinliklar nimadan iborat?
48.	Huquqiy madaniyat va huquqiy ongi tushunchalari nimadan iborat va ularning jamiyatdagi roli qanday?
49.	Huquqiy axloq (etika) tushunchasi va yuridik kasblarda uning ahamiyati qanday?
50.	Ommaviy huquq va xususiy huquq o'rtasidagi farqlar nimada?

Davlat va huquq tarixi

1.	Davlat va huquq tarixi fani nimani o'rgatishini ayting.
2.	Davlat va huquq tarixining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
3.	Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish ahamiyatini tushuntirib bering.
4.	Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va huquq keilib chiqishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
5.	Davlat va huquq tarixi fanining predmeti va ahamiyati haqida ma'lumot bering.
6.	"Avesto" to'g'risida nima bilasiz, uning huquqiy ahamiyati nimada bo'lgan?
7.	Qadimgi Sharq mamlakatlari huquq manbalariga qisqacha tavsif bering.
8.	Qadimgi Sharq mamlakatlarining huquq manbalarida davlatga qarshi jinoyatlar qanday jazolar belgilangan edi?
9.	Amir Temur saltanatida markaziy boshqaruv organlari haqida ma'lumot bering.
10.	Qadimgi Sharq mamlakatlarining huquq manbalarida mulkka qarshi jinoyatlar uchun qanday jazolar belgilangan edi?
11.	Qadimgi Sharq mamlakatlarining huquq manbalarida shaxsga qarshi jinoyatlar uchun qanday jazolar nazarda tutilgan edi?
12.	"Avesto" bo'yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi haqida nimalarni bilasiz?
13.	Qadimgi Afinada Tesey, Salon, Klisfen tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning davlatni tashkil topishidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
14.	"Napoelon fuqarolik kodeksi" ning mazmunini tushuntirib bering.
15.	Qadimgi Rimda plebeylar va patrisiylar o'rtasida qanday kurash bo'lgan va uning natijalari nima bilan tugagan?
16.	"Xabeas korpus akti" haqida nimalarni bilasiz?
17.	Rimda qadimgi davr huquqi bo'yicha nikoh va oila munosabatlari qanday tartibga solingan edi?
18.	Qadimgi Rim huquqi bo'yicha sud ishlarini yuritishdagi legisaksion jarayonning mohiyatini tushuntirib bering.
19.	Qadimgi Afinada tashkil topgan demokratik tuzum haqida ma'lumot bering.

20.	XII jadval qonunlarida deliktlar haqida qanday normalar belgilangan edi?
21.	Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari haqida ma'lumot bering.
22.	Angliyada vujudga kelgan "adolat huquqi" va uning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.
23.	XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi natijasida qabul qilingan 1689-yilgi "Huquqlar to'g'risidagi Bill" ning mazmunini bayon qiling.
24.	XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi natijasida qabul qilingan 1701-yilgi "Taxt vorisligi haqidagi akt" ning mazmunini bayon eting.
25.	AQSHning 1787-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va asosiy mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
26.	1791-yilgi "Huquqlar to'g'risidagi Bill"ning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
27.	Fransiyaning 1791-yilgi birinchi Konstitutsiyasi haqida gapirib bering.
28.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
29.	O'zbekiston Respublikasining XX asrdagi qonunchiligida fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi o'zining qanday ifodasini topgan edi?
30.	Davlatning paydo bo'lishi qanday tushuntiriladi?
31.	Qadimgi Misr davlati qanday tashkil topgan?
32.	O'rta asr Yevropasida feodal huquq qanday edi?
33.	Islom huquqining asosiy manbalari nimalar?
34.	Usmonli imperiyasining huquqiy tizimi qanday edi?
35.	Xitoy Xalq Respublikasining huquqiy tizimi qanday shakllangan?
36.	Qadimgi Hindistonda Manu qonunlari nima edi?
37.	Buyuk Britaniyaning huquqiy tizimi qanday rivojlangan?
38.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixi qanday?

39.	Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi qachon va qanday amalga oshirilgan?
40.	Magna Carta nima va uning ahamiyati qanday?
41.	Mesopotamiya davlati va uning huquqiy tizimi qanday edi?
42.	O'rta Osiyoda Temuriylar davrida huquq qanday rivojlangan?
43.	Hindistonda Britaniya mustamlakachiligi davridagi huquqiy tizim qanday edi?
44.	Vizantiya imperiyasining huquqiy tizimi qanday edi?
45.	Mo'g'ullar imperiyasining huquqiy tartibi qanday edi?
46.	Rim imperiyasining yuksalishi va qulashidagi huquqiy omillar qanday edi?
47.	Angliyaning 1689-yilgi Huquqlar Billining ahamiyati qanday edi?
48.	AQSh Konstitutsiyasi qachon va qanday qabul qilingan?
49.	O'rta Osiyoda Buxoro amirligi va uning huquqiy tizimi qanday edi?
50.	Yaponiyada samuraylar davridagi huquqiy tizim qanday edi?
Konstitutsiyaviy huquq faniga kirish (O'zbekiston Konstitutsiyasi)	
1.	Konstitutsiyaviy huquqning yetakchi huquq sohasi sifatidagi o`rmini yoritib bering.
2.	Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan ko'rsatib bering.
3.	Konstitutsiya muqaddimasining xususiyatlari hamda konstitutsiya normalarida aks etishini yoritib bering.
4.	O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering
5.	O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishning konstitutsiyaviy asoslarini tushuntirib bering.

6.	Demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi deganda nimani tushunasiz?
7.	Fuqarolikka ega bo`lish va yo`qotish asoslarini tushuntirib bering.
8.	Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishini tushuntirib bering?
9.	Saylov tizimining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering.
10.	Fuqarolar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoritib?
11.	Sud orqali huquq va erkinliklarni himoya qilish deganda nimani tushunasiz?
12.	Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to`xtaling.
13.	O`zbekistonda vijdon va etiqod erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari deganda nimani tushunasiz?
14.	Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurulishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan tavsiflab bering.
15.	Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati nimadan iborat?
16.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “O`zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli”, deb yozilgan normani qanday tushunasiz?
17.	Konstitutsiyada belgilangan shaxsning erkin harakatlanish huquqini tushuntirib bering.
18.	Amaldagi Konstitutsiyada belgilangan “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to`g`ridan-to`g`ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi”, degan normaning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
19.	Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko`rinishlari mavjud?
20.	Hokimiyatlar bo`linish prinsipining mohiyatini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering.
21.	Shaxsiy va oilaviy sirga ega bo`lish huquqining mazmuni yoritib bering?
22.	Referendumda ishtirok etish huquqi deganda nimani tushunasiz?
23.	O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qanday organ?

24.	Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering.
25.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy xujjatlar chiqaradi?
26.	Qanday xolatlarda Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?
27.	Qonunni qabul qilish jarayonini yoritib bering.
28.	Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega sub'ektlar haqida ma'lumot bering.
29.	Davlat hokimiyati tizimida sud hokimiyatining o'rni va ahamiyatini yoritib bering
30.	O'zbekiston Respublikasi sud tizimini yoritib bering
31.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini qonunchilik doirasida yoritib bering.
32.	Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari masalasini yoritib bering
33.	Sudyalar daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering.
34.	Advokatura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering.
35.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi masalasini yoritib bering.
36.	Konstitutsiyaning bosh qomusiy qonun deb atalishining sababi nima?
37.	O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari nimalar?
38.	Konstitutsiyaning bosh tamoyillari nimalardan iborat?
39.	O'zbekiston Respublikasining hududiy tuzilishi qanday?
40.	Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi qanday?
41.	Ta'lim olish huquqi Konstitutsiyada qanday belgilangan?
42.	Konstitutsiyada sog'liqni saqlash huquqi qanday belgilangan?

43.	Konstitutsiyada fuqarolarning saylov huquqlari qanday belgilangan?
44.	Ombudsman nima va uning vazifalari qanday?
45.	Konstitutsiyada axborot erkinligi qanday himoya qilinadi?
46.	Konstitutsiyada shaxsiy daxlsizlik huquqi qanday belgilangan?
47.	O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligini qanday ta'minlanadi?
48.	O'zbekiston Konstitutsiyasida huquqiy davlat tamoyili qanday belgilangan?
49.	O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari qanday kafolatlangan?
50.	Konstitutsiyada qonun ustuvorligi tamoyili qanday belgilangan?